

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG DRAMATURGIYASIDA FOJEA VA UMID MOTIVLARI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg (1939-2009)-O'zbek adabiyoti tarixida o'zining chuqur tarixiy-falsafiy mazmunli she'rlari,nasriy asarlari va dramaturgik izlanishlari bilan alohida o'rin egallagan ijodkor sanaladi.Garchi o'z ona tili bo'lmish rus tilida ijodiy faoliyat olib borgan bo'lsa-da ,butun ijodiy yo'lini o'zbek xalqining ruhiy dunyosi,milliy qadriyatlari va insoniy tuyg'ulariga bog'lagan holatda davom ettirgan.Faynberg dramaturgiyasida,ayniqsa,fojea va umid motivlarining hamohangligi,insonning hayoti davomida duch kelgan sinovlariga ma'naviy jihatdan bardoshli bo'lishi kerakligi xususida so'z boradi va shu jihatdan boshqalarnikidan farqilanib turadi.

Kalit so'zlar: mehr-oqibat,iztirob,najot, “Их стадион в небесах”, Paxtakor, inson ruhi, fidoyilik timsoli, fojea, umid, “Toshkentliklar”.

Aleksandr Arkadevich Faynberg adabiyotning dramaturgiya yo'nalishida salmoqli ijod qilgan va o'zining durdona asarlari bilan dunyoning turli burchaklaridan muxlislariga ega atoqli ustoz dramaturglardan sanaladi.U turli mavzularda ijod qilgan bo'lishiga qaramasdan,yozgan barcha asarlari markazida inson va uning qalbi asosiy mavzu ekanligi ko'rinadi.Uning sahna asarlarida voqea ketma-ket bo'lishi bilan bir qatorda insoniylik,mehr-oqibat,iztirob va najot kabi insoniy pok tuyg'ular haqidagi falsafiy mulohazalar tizmasi hamdir.Shoir va dramaturg sifatida Faynberg o'zi yozayotgan har bir so'zga o'ziga xos falsafiy mazmun yuklashga harakat qiladi.Uning qahramonlari hayotiy,samimiy,ular og'riydi,sevadi,umid qiladi.

Aleksandr Arkadevich Faynberning eng mashhur dramatik asarlaridan biri “Osmondagi stadion”(rus tilida “Их стадион в небесах”) bo'lib,bu asar 1979-yilda havo halokatida vafot etgan Paxtakor jamoasi a'zolari xotirasiga bag'ishlab yozilgan.

Bu asar davomida shoir sportchilar o'limini shunchaki halokat emas,fojea ekanligiga ishora qiladi va ularga xos bo'lgan insoniy ruh va fidoyilik umrbod yashashini ko'rsatib beradi.”Ularning jismi qulagan bo'lsa ham,ruhi osmonga ko'tarildi- u yerda yana bir bor o'yin boshladi.” Bu jumla asardan keltirilgan bo'lib,so'zlarimizga yorqin dalil bo'la oladi.Bu yerdagi badiiy timsol yordamida Faynberg fojea ichidan umidni izlaydi.O'lim bu shunchaki yo'qolish emas, bu abadiyat

sari ko'tarilish, inson nomining zamondoshlari hamda kelajak avlod xotirasiga bir umr muhrlanishi ham demakdir. Asar falsafiy-musiqiy ohangda qog'ozga tushirilgan bo'lib, hali-hanuz kino sahnalarida keng tomosha qilinadi.

Faynbergning yana bir mashhur asari bu "Toshkentliklar" ("Ташкентцы")-urush yillaridagi Toshkent hayotini yoritib beradi. Unda urush paytida Toshkentga evakuatsiya qilingan bolalar, ayollar, qariyalarga mehr ulashgan o'zbek xalqining fidoyiliklari tasvirlab berilgan. Muallif bu dramatik asarda millatlararo do'stlik, hamjihatlik, insonparvarlik g'oyalarini madh etgan. "Bizning nonimiz kam, ammo yuragimiz keng-biz uni bo'lisha olamiz." Ushbu gap "Toshkentliklar" asari qahramoni tomonidan aytilgan bo'lib, undagi umid, ishonch va insoniylikning yuksak badiiy ifodasini ko'rishimiz mumkin. Ijodkor uchun yuzaga kelgan ziddiyatlarni yechishning yagona yo'li mehr orqali yuksalishdir.

Faynbergning barcha dramaturgik asarlarida, xususan "Osmondagi stadion" va "Toshkentliklar" da umid motivi fojea ichida unib chiqadi. Fojea inson boshiga kelgan sinov, umid esa najotdir. Shoir uchun insonni qiyinchiliklar yo'lida kuchli qiladiga ko'zlardan oqayotgan yosh emas, qalbda jo'shib turgan ishonchdir. "Har bir yo'qotish ortida hayot davom etadi. Biz ularni eslab yashaymiz-demak ular biz bilan." Bu g'oya ijodkor dramaturgiyasining bor falsafasini o'zida mujassamlashtirgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Faynberg dramaturgiyasi fojeadan umidga olib boruvchi yorug' yo'ldir. Uning asarlarida o'lim tugash emas, insonning abadiylikka yetishi, urush esa mehr-oqibat uchun sinovdir. Faynberg asarlarida insonni dunyoga o'zgacha nigoh bilan qarashga, yuksak ruh, umid, ishonch va muhabbat bilan yashashga undaydi. Uning dramaturgiyasi o'zbek adabiyotida inson ruhining chuqur tahliliga bag'ishlangan eng noyob va badiiylikning yuksak cho'qqisini zabt etgan yo'ldir. Bu beqiyos yo'l hali yuzlab yillar mobaynida adabiyotning shu sohasida ijod qiladigan san'at ahliga namuna bo'ladigan dastur sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A. Ularning stadionlari osmonlarda- Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.
2. Faynberg, A.A. Toshkentliklar-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
3. Qosimov, B. Adabiyotshunoslik asoslari-Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Rahmonov, S. XX asr o'zbek adabiyoti jarayoni-Toshkent; Universiteti, 2010.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, "Faynberg Aleksandr Arkadevich" maqolasi.- Toshkent, 2001.